5.5. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni o'z vaqtida to'lamagan taqdirda, Buyurtmachi

Bajaruvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov miqdorining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

5.6. Buyurtmachi shartnomaning tegishli shartini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikka tortilganda, tegishli harakat (harakatsizlik) natijasida Buyurtmachi tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganligi (lozim darajada bajarilmaganligi) yuzasidan Bajaruvchining javobgarligi ham ko'rib chiqiladi. Buyurtmachining Bajaruvchi aybi bilan shartnomani bajarmaganligi (lozim darajada bajarilmaganligi) natijasida yetkazilgan zarar, belgilangan tartibda Bajaruvchi tomonidan qoplanadi.

5.7. Tomonlarning ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan javobgarlik masalalari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

#### VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Tomonlar o'rtasida ushbu kelishuvdan kelib chiqadigan nizolar tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

6.2. Tomonlar o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinmagan nizolar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

#### VII. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1. Agar ushbu shartnoma tuzilgandan so'ng, ushbu shartnomada belgilangan majburiyatlarning biron bir tomonini to'liq yoki qisman to'g'ri bajarishiga to'sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelsa va agar bunday holatlar, ya'ni yong'in, toshqin, zilzila, boshqa tabiiy ofatlar, eksport yoki importga to'siqlar yoki embargolar, urush, jangovar harakatlar, terroristik harakatlar, ish tashlashlar (tomonlar ishchilarining ish tashlashlaridan tashqari), pandemiya, amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlar, davlat organlari va O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qabul qilingan umumiy xarakterdagi qarorlar tomonlarning shartnoma shartlarini bajarishiga bevosita ta'sir qilsa, tegishli majburiyatlarning bajarilishi vaqti bunday holatlar bartaraf etilgan vaqtga yoki ularning oqibatlari tugashi vaqtiga ko'chiriladi.

7.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan Tomon, ushbu holat haqida shuningdek, holatning taxminiy davomiyligi to'g'risida boshqa Tomonni yozma ravishda 7 (yetti) kun ichida xabardor qilishi shart. Agar yuqorida ko'rsatilgan holatlar to'g'risida o'z vaqtida xabar berilmagan bo'lsa, yengib bo'lmas kuch ta'sirida zarar yetkazilgan Tomon ushbu holatlarni asos qilib ololmaydi.

7.3. Xabarnomada ko'rsatilgan faktlar rasmiy manbalar tomonidan berilgan hujjatlar bilan tasdiqlanishi kerak, shu jumladan, press-revizlar, biroq ular bilan cheklanmaslik lozim.

Bunday xabarnomaning yo'qligi, shuningdek tegishli dalillarning yo'qligi ushbu tomonni shartnoma majburiyatlarini bajarishdan ozod qilinishiga asos sifatida yuqoridagi holatlarni keltirish huquqidan mahrum qiladi.

7.4. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar zudlik bilan o'zaro muzokaralar olib boradilar va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish yoki bartaraf etish maqsadida ko'riladigan choralar to'g'risida kelishib oladilar.

7.5. Agar fors-major holatlari yoki ularning oqibatlari tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qiladigan bo'lsa, tomonlarning har biri boshqa tomonga ushbu shartnomani bekor qilishning kutilayotgan sanasidan 10 (o'n) ish kuni oldin yozma ravishda xabar yuborganidan keyin ushbu shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bunday holda tomonlarning hech biri boshqa tomondan fors-major holatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli emas. Shuningdek, Bajaruvchi bajarilmagan majburiyatlari uchun Buyurtmachidan olingan barcha to'lovlarni Buyurtmachiga qaytaradi va Buyurtmachi Bajaruvchining bajarilgan barcha majburiyatlarini to'liq to'laydi.

#### VIII. KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASH

8.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning sheriklari,

ishchilari yoki vositachilari har qanday noqonuniy ustunliklarga yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lashni amalga oshirmaydi.

**8.2. Ushbu Shartnoma** majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari pora berish/olish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlarning talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar. Jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga oid xalqaro hujjatlar talablarini buzilishi kabi harakatlarni amalga oshirmaydi.

**8.3. Ushbu Shartnoma** Tomonlarining har biri boshqa Tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul mablag'lari, sovg'alar berish, ularga ish (xizmatlar)ni bepul bajarishi va ushbu bandda ko'rsatilmagan boshqa usullar bilan xodimning rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatlarni sodir etishdan bosh tortadi.

Xodimning uni rag'batlantiruvchi tomon foydasiga amalga oshirgan harakatlari deganda quyidagilar tushuniladi:

- boshqa kontragentlar bilan taqqoslaganda asossiz ustunliklarni taqdim etish;
- har qanday kafolatlar bilan ta'minlash;
- amaldagi tartib-taomillarni tezlashtirish;
- xodim tomonidan o'z vazifalari doirasida amalga oshiriladigan, ammo Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va ochiqligi tamoyillariga zid bo'lgan boshqa harakatlar.

**8.4. Agar Tomonlardan biri** mazkur shartnomaning 2-ilovasida keltirilgan korruptsiyaga qarshi kurashish shartlarini buzgan yoki buzishi mumkin deb gumon qilsa, ikkinchi Tomonni yozma ravishda

xabardor qilishga majbur. Yozma xabarnomadan so'ng, tegishli Tomon ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini buzilish sodir bo'lmaganligi yoki sodir bo'lmasligi tasdiqlangunga qadar to'xtatib turishga haqli. Ushbu tasdiq yozma xabarnoma yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yuborilishi kerak.

**8.5. Yozma xabarnomada** Tomon kontragent, uning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari tomonidan ushbu shartlar va qoidalarning buzilganligi yoki buzilishi mumkinligini ishonchli tarzda tasdiqlaydigan yoki asoslashi mumkin bo'lgan faktlarga tayanishi yoki tegishli materiallarni taqdim etishga majbur, ya'ni pora olish/berish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlar asoslantirilishi lozim.

**8.6. Shartnomaning** taraflari korruptsiyaning oldini olish choralari ko'rish tartib-taomillarini tan oladi va ularga rioya etilishini nazorat qiladi. Bunda Tomonlar korruptsiyaviy faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan kontragentlar bilan ishbilarmonlik munosabatlari xavfini minimallashtirish, shuningdek, korruptsiyaning oldini olish maqsadida bir-biriga o'zaro yordam berish uchun oqilona harakatlarni amalga oshiradilar. Shuningdek, Tomonlar korruptsiyaviy faoliyatga Tomonlarning ishtiroki xavfini oldini olish maqsadida tekshiruvlar o'tkazish tartib-taomillarini amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

**8.7. Tomonlar** o'zlarining sodir etilishi mumkin bo'lgan noqonuniy xatti-harakatlari va ushbu Shartnomaning korruptsiyaga qarshi kurashish shartlarining buzilishi kontragentning ishonchliligi reytingini pasaytirishidan tortib ushbu shartnomaning bekor qilinishigacha bo'lgan noxush oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tan oladi.

**8.8. Tomonlar** maxfiylik tamoyillariga rioya qilgan holda ushbu Shartnomani bajarish doirasida keltirilgan faktlar bo'yicha tegishli tartib-taomillar amalga oshirilishini va amaliy qiyinchiliklarni bartaraf etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarning oldini olish bo'yicha samarali choralarni qo'llashni kafolatlaydilar.

**8.9. Tomonlar** ushbu Shartnomaning korruptsiyaga qarshi kurashish shartlarini bajarish bo'yicha to'liq maxfiylikni, shuningdek, talablar buzilganligi faktlari to'g'risida xabar bergan Tomon uchun ham, shuningdek, xabar bergan Tomonning xodimlari uchun ham salbiy oqibatlar keltirmasligini

kafolatlaydilar.

### IX. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

9.1. Ushbu shartnoma Tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 25 dekabr gacha amal qiladi.

9.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ushbu shartnomaning barcha shartlari bajarilganda va hisob-kitoblar to'liq amalga oshirilganda tugaydi.

### X. YAKUNIY QOIDALAR

9.3. Ushbu Shartnoma tomonlarning kelishuvi bilan yoki Tomonlardan birining talabiga binoan, boshqa tomon tomonidan shartnoma shartlari sezilarli darajada buzilgan taqdirda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

9.4. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma ravishda tuzilgan va taraflarning tegishli vakolatli vakillari tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi.

9.5. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

9.6. Ushbu shartnoma, unga kiritilgan o'zgartirishlar (qo'shimchalar) tomonlar tomonidan imzolangan paytdan boshlab oshiriladi.

### XI. TOMONLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI

**Bajaruvchi "Iskandar GSMCHJ" MCHJ**

Sirdaryo v Guliston sh Quruvchilar kucha 1- yu

R/s: 2020800804888205001

Bank: Guliston sh Turon bank

MFO 00368 INN: 301832181



Raxbar:  T. Yuldoshev.

**Buyurtmachi: Boyovut tuman obodonlashtirish**

**boshkarmasi**


R/s: 100022860242127045204110003

L/s: 2340200300100001010

Bank: Markaziy bank XKKM Toshkent sh.

MFO 00014 INN: 206946592

Raxbar: \_\_\_\_\_ P. Boyjigitov.

	<b>Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan.</b> Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	PO'LAT BOYJIGITOV ALLAYAROVICH
	Imzolangan sana	20 сен 2022 17:07
	Hujjat kodi	KC5116811525
	Hulosa kodi	BD2107875548

"УТВЕРЖДАЮ"

Боёвут туман

Ободонлаштириш бошқармаси

П.Бойжигитов

2022 г.



ТИТУЛЬНЫЙ СПИСОК СТРОЙКИ

Раздел 1. Основные данные по стройке

1	Наименование и местонахождение стройки	Сирдарё вилояти "Қарапчи" маҳалла фуқаролар йиғинидаги "Мароканд" кўчасини жорий таъмирлаш ишларини бажариш учун
2	Отрасль	Коммунальный услуг
3	Инвестор	Местный бюджет
4	Заказчик	Боёвут туман Ободонлаштириш бошқармаси
5	Разработчики	"АРХИТЕКТОР УЙ-ЙО'Л ЛОЙИХА" МЧДЖ
5.1.	ТЭО	
	ПСД и / или ТД	"АРХИТЕКТОР УЙ-ЙО'Л ЛОЙИХА" МЧДЖ
5.3.	Экспертизы	"SHAXARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI" DUK
6	Генеральный подрядчик	"Israndar Guliston SERVIS" MCHJ
7	Источник финансирования	Местный бюджет
8	Срок начала и окончан.строительства	2022 г.
9	Основные показатели стройки:	по ПСД
	Мощность (в соотв.ед.измер.)	объект
	Основные фонды	919190000,0
	Капитальные вложения	919190000,0
	Строительно-монтажные работы	890000000,0
	Оборудование, инвентарь	0,000
	Прочие работы и услуги	29190000,00
	Содержание службы заказчика	
ПРОГНОЗ на 2022 г. в соответствии с согласованным с ММЭС и МФ адресным списком		В действующих ценах (млн.сум)
	Мощность (в соотв.ед.изм.)	объект
	Основные фонды	919190000,00
	Капитальные вложения	919190000,00
	Строительно - монтажные работы	890000000,00
	Оборудование, инвентарь	0,00
	Прочие работы и услуги	29190000,00
	Содержание службы заказчика	0,000

Раздел II. Поквартальная разбивка прогноза на 2022 г.

ПРОГНОЗ на 2022 г. в соответствии с согласованным с ММЭС и МФ адресным списком	( в текущих ценах, млн.сум)				
	Всего	в том числе по кварталам:			
		I	II	III	IV
Ввод мощности	объект	объект	объект	объект	объект
Основные фонды	919190000,00			919190000,00	
Капитальные вложения	919190000,00			919190000,00	
СМР, оборудование	890000000,00			890000000,00	
Прочие работы и услуги	29190000,00			29190000,00	
Содержание службы заказчика	0,00			0,00	

"Iskandar Guliston SERVIS"



Т.Йулдошов

Боёвут туман "Қарапчи" маҳалла фуқаролар йиғинидаги "Мароқанд  
" кўчасини жорий таъмирлаш 105-9-123-06/2022 шартномага 1-  
илова

Боёвут туман "Қарапчи" маҳалла фуқаролар йиғинидаги "Мароқанд" кўчасини жорий таъмирлаш бўйича

**МОЛИЯЛАШТИРИШ ЖАДВАЛИ**

№	Иш тури ва номи	2022 йил жами	2022 йилда бажариладиган ишлар учун молиялаштириш графиги														
			январ	феврал	март	апрел	май	июн	июл	август	сентябр	октябр	ноябр	декабр			
1	Шартноманинг бахосининг 30% микдоридан аванс	267 000 000,0											267 000 000,0				
2	Берилган авансни қайтарилган ҳолда бажарилган ишларнинг 100% микдорда молиялаштириш	623 000 000,0											623 000 000,0				
	<b>жами</b>	<b>890 000 000,0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>890 000 000,0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>

сумда

БҮЮРТМАЧИ  
Боёвут туман Ободонлаштиришбош қармаси  
Т.Бойжигитов



"ISKANDAR GUESTION SERVIS" MCHJ  
Т.Йўлдошов.

Боёвут туман "Қарапчи" маҳалла фуқаролар йиғинидаги "Мароқанд" кўчасини жорий таъмирлаш (05-9-123-06) 2022 шартномага 2-илова

Боёвут туман "Қарапчи" маҳалла фуқаролар йиғинидаги "Мароқанд" кўчасини жорий таъмирлаш бўйича

**БАЖАРИШ ЖАДВАЛИ**

№	Иш тури ва номи	2022 йил жами	2022 йилда бажариладиган ишлар графиги												сумда		
			январ	феврал	март	апрел	май	июн	июл	август	сентябр	октябр	ноябр	декабр			
1	Боёвут туман "Қарапчи" маҳалла фуқаролар йиғинидаги "Мароқанд" кўчасини жорий таъмирлаш	890 000 000,0											890 000 000,0				
	<b>ЖАМИ</b>	<b>890 000 000,0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>890 000 000,0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>0</b>



БҮЮРТМАҲИ  
 Бўёвут туман Ободiyatshirish бо'ш қармаси  
 Т.Бойжигитов



"Iskandar Guliston Servis" MCHJ  
 Т.Йўлдошов.





Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida  
**GUVOHNOMA**

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

**"ISKANDAR-GULISTON SERVIS" Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

**"ISKANDAR-GULISTON SERVIS" MChJ**

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

08.02.2011

29

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

301832181

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Sirdaryo viloyati, Gulliston shahri, Bog'ishamol MFY 3-mavze Quruvchilar  
ko'chasi 7-uy.

Guvohnoma:

Sirdaryo viloyati, Gulliston shahri, DAVLAT XIZMATLARI  
MARKAZI

tomonidan  
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):



Гулистон шаҳар Давлат хизматлари

марказида

2021 йил «23» декабр даги  
№ 445329 сон рсестр рақами

билан қайта  
РЎЙХАТГА ОЛИНИБ  
«ТАСДИҚЛАНДИ»

«ISKANDAR-GULISTON SERVIS»

МЧЖНИНГ

2021 йил «23» декабр даги



# ISKANDAR-GULISTON SERVIS

МАСЪУЛИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТИ

## УСТАВИ

(Янги тахрирда)



I-модда  
УМУМИЙ ҚОИДАЛАР.

1.1. Кейинги ўринларда «жамият» деб аталувчи «ISKANDAR-GULISTON SERVIS» масъулияти чекланган жамияти Ўзбекистон Республикасининг «Масъулияти чекланган ҳамда қўшимча масъулиятли жамиятлар тўғрисида»ги Қонуни (кейинги ўринларда «қонун») ва Ўзбекистон Республикасининг бошқа меърий ҳужжатларига асосан тузилган.

Шунингдек, «ISKANDAR-GULISTON SERVIS» масъулияти чекланган жамияти 2011 йил 08 февралда 29-сон реестр рақами билан Гулистон шаҳарда давлат рўйхатидан ўтган «ISKANDAR-GULISTON SERVIS» масъулияти чекланган жамиятининг ҳуқуқий вори хисобланади.

1.2. Жамиятнинг таъсисчиси:

Йўлдошев Тулқин Парпиевич (паспорта: АВ0687222 Сирдарё вилояти Гулистон шаҳар ИИБ томонидан 10.08.2015 йилда берилган).

Жамият устав жамғармасидаги улуши 1 127 729 300.00 (бир миллиард бир юз йигирма етти миллион етти юз йигирма тўққиз минг уч юз) сўм 100.00 % ни ташкил қилади.

1.3. Жамият иштирокчиларининг таркиби ўзгартирилиши мумкин, шунингдек ўз хоҳишлари билан жамият таркибига кириш истагини билдирган, унинг уставини тан олган ва таъсис бадалини тўлаган манфаатдор юридик ва жисмоний шахслар ҳисобига кенгайтирилиш мумкин.

1.4. Жамият тўлиқ фирмали номига эга:

- Ўзбек тилида - «ISKANDAR-GULISTON SERVIS» масъулияти чекланган жамияти;
- Рус тилида - Общества с ограниченной ответственностью «ISKANDAR-GULISTON SERVIS».

1.5. Жамият қисқа фирмали номига эга:

- Ўзбек тилида - «ISKANDAR-GULISTON SERVIS» МЧЖ;
- Рус тилида - ООО «ISKANDAR-GULISTON SERVIS».

1.6. Жамият почта манзили: Сирдарё вилояти, Гулистон шаҳар Богшамол МФЙ 3-мавзе Кўрвечилар кўчаси 7-йў

1.7. Жамиятнинг фаолият муддати чекланмаган.

II-модда  
ФАОЛИЯТИНИНГ МАКСАДИ ВА ТУРЛАРИ

2.1. \*Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари билан таъқиқланмаган ҳар қандай фаолиятлардан фойда олиш жамият фаолиятининг максадидир.

2.2. Жамият ўз мақсадига мувофиқ равишда ўз фаолиятини қуйидаги йуналишлари бўйича олиб боради:

41201 - Турар жой биноларини қуриш

- Иссиқхоналар қуриш
- Барча турдаги мебеллар ишлаб чиқариш
- Пишган гишт, пенаблок, шлакблок ва газоблок ишлаб чиқариш
- Ixtisoslashmagan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi
- Нон ва нон маҳсулотлари ишлаб чиқариш
- Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳамда иссиқхона маҳсулотлари етиштириш ва савдоси
- Барча турдаги ишлаб чиқариш хизматлари
- Axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasidagi boshqa faoliyat turlari
- Овқатланишни ташкил қилишнинг бошқа турлари;
- Қурилиш материаллари (албастер, гипс, охак, шпаклевка, ҳар хил турдаги бўёқлар, эмулсия, шлакаблок, гишт, брусчатка) ишлаб чиқариш ва сотиш;
- Иссиқхоналар қуриш ва иссиқхонада қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш ва сотиш;
- Қишлоқ хўжаликни томчилатиб сугориш ускуналарига хизмат кўрсатиш;
- Тикувчилик ва енгил саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва сотиш;
- Бошқа тўқилган ва трикотаж маҳсулотларини ишлаб чиқариш;

- Ип газлама ишлаб чиқариш;
- Компьютер, принтер, ксерокопия ва оргтехникалар савдоси;
- Спорт ўйинларини ташкил қилиш;
- Телефон ва уяли телефонларга хизмат кўрсатиш;
- Мехмонхоналар очиш, мехмонхона хизматларини кўрсатиш;
- Дам олиш ва кўнгил очишни ташкил этиш бўйича бошқа фаолият;
- Озиқ ва ноозиқ-овқат маҳсулотлари савдосини кенг турда амалга ошириш ҳамда ташкил этиш;
- Кандолатчилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва сотиш;
- Ихтисослашган дўконларда маиший электр товарлари чакана савдоси;
- Канцелария товарлари савдоси;
- Ихтисослашмаган улгуржи савдо;
- Автомобил транспортида юк ташиш;
- Автотранспорт воситаларига техник хизмат кўрсатиш;
- Автотранспорт воситаларига ёқилғи қуйиш шахобчаларини ташкил қилиш ;
- Автотранспорт воситаларини газ (пропан,метан) билан таъминлаш;
- Автотранспорт воситалари билан йуловчи ва юкларни ташиш хизматларини кўрсатиш;
- Автотранспорт воситалари эҳтиёт қисмлари савдоси;
- Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштириш, қайта ишлаш,сақлаш ва сотиш;
- Мевали ва манзарали кўчатлар етиштириш ва сотиш;
- Полиз ва Сабзаёт экинлари кўчатларини етиштириш ва сотиш;
- Кўчатхона маҳсулотлари ишлаб чиқариш;
- Қишлоқ хўжалиги корхоналари,ташкilotлар ва аҳолига шартнома асосида транспорт хизматини кўрсатиш;
- Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини экспорт ва импорт қилиш;
- Қишлоқ хўжалик техникалари билан хизмат кўрсатиш;
- Қишлоқ хўжалик техникаларини арендага бериш ва олиш ;
- Қишлоқ хўжалиги техникалари эҳтиёт қисмлари савдоси;
- Мевалар ва сабзаотларни қайта ишлаш ва консервалашнинг бошқа турлари;
- Чорвачилик маҳсулотлари (гўшт, суг, ёғ ва х.к.) қайта ишлаш, етиштириш ва сотиш;
- Чорва моллари етиштириш, ва сотиш;
- Чорва молларига ветеринария даволаш-профилактик хизмат кўрсатиш;
- Баликчиликни ривожлантириш ва сотиш;
- Паррандачиликни ривожлантириш ва сотиш;
- Ем ва ем маҳсулотлари савдоси;
- Пахта толаларини тайёрлаш ва йигириш;
- Қурилиш мақсадларига мўлжалланган гипс буюмлари ишлаб чиқариш;
- Қурилиш материаллари мих,шруп ва бошқа метал буюмлар ишлаб чиқариш;
- Томорқа хизматларини кўрсатиш;
- Бошқа турдаги техникаларга техник хизмат кўрсатиш;
- Автосалонлар очиш ва кенг сохада хизмат кўрсатиш;
- Туман аҳолисига ва чет эл фуқароларига сайёхлик(туризм) хизмати кўрсатиш;
- Хар хил турдаги қурилиш мантаж ишларини бажариш;
- Турар жой биноларини қуриш;
- Мебеллар ишлаб чиқариш ва сотиш;
- Пластик профил,альюмен профил,ёғочдан ва бошқа буюмлардан эшик ва ромлар ишлаб чиқариш ва сотиш;
- Асаларичиликни ривожлантириш ва маҳсулотларини сотиш;
- Конунда белгиланган тартибда улгуржи ва чакана савдо билан шугилланиш;
- Банкдан кредит олиш ва ўз мол-мулкни гаровга қуйиш.

### III-модда ЖАМИЯТНИНГ ХУҚУҚЛАРИ.

3.1.Жамият иштирокчиларининг мажбуриятлари юзасидан жавобгар эмас.

3.2. Жамият мулкый ҳуқуқларини сотиб олиш, судда, хужалик ва ҳакамлар судида даъвогар ва жавобгар булиши мумкин.

3.3. Куйилган вазифаларни амалга ошириш учун жамият куйидаги ҳуқуқларга эга:

- шартномалар тузиш ҳамда битимлар ва бошқа ҳуқуқини ҳаракатларни амалга ошириш;

- Ўзбекистон Республикаси ва ундан ташқари бинолар, иншоотлар, қорхоналарни, транспорт воситаларини ҳамда бошқа кучар ва кучмас мулкни ижарага олиш ва бериш;

- ишлаб чиқарилган маҳсулотга, ишга курсатиладиган хизматга бозордаги узғаришларни ҳисобга олиб мустақил равишда нарх белгилаш;

- амалдаги қонун ҳужжатлари ҳуқуқий шахсларга берадиган бошқа ҳуқуқлардан фойдаланиш.

Жамиятнинг ҳуқуқлари таъсис шартномаси шартларига қатъиян мувофиқ тарзда амалга оширилади.

#### IV-модда. УСТАВ ФОНДИ

4.1. Жамиятнинг Низом фонди 1 127 729 300.00 (бир миллиард бир юз йигирма етти миллион етти юз йигирма тўққиз минг уч юз) сўмдан иборат бўлиб, у жамият қарорига асосан таъсисчиларнинг нақд пул ва транспорт воситалари улушларидан таркиб топган.

4.2. Иштирокчилар йиғилиши қарорига биноан устав фонди миқдори ўзгартирилиши мумкин.

4.3. Устав фонди иштирокчиларининг қўшимча қўйилмалари ҳисобига қўпайтирилиши мумкин.

4.4. Устав фондига қўшимча қўйилмалар масаласини жамият иштирокчилари йиғилиши ҳал қилади.

4.5. Жамиятнинг устав фонди унинг иштирокчилари улушларининг номинал қийматларидан таркиб топади.

#### V-модда. ЖАМИЯТНИНГ БОШҚА ФОНДЛАРИ

5.1. Жамиятнинг қонун ҳужжатларида таъсис шартномаси ва ушбу уставда белгиланган тартибда уз фаолияти учун зарур фондларни ташкил этади.

#### VI-модда ЖАМИЯТ ИШТИРОКЧИЛАРИНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ ВА БУ

6.1. Жамият иштирокчилари куйидагиларга ҳақлидир:

- амалдаги қонунчиликда ва жамиятнинг таъсис ҳужжатларида белгиланган тартибда жамиятнинг ишларини бошқаришда иштирок этиш;

- амалдаги қонунчиликда ва жамиятнинг таъсис ҳужжатларида белгиланган тартибда жамиятнинг келгуси фаолияти тўғрисида ахборот олиш ҳамда унинг бухгалтерия дафтарлари ва бошқа ҳужжатлар билан танишиш;

- фойдани тақсимлашда иштирок этиш ва ундан тегишли қисмини олиш;

- жамиятнинг устав фондидаги ўз улушини ёхуд, унинг бир қисмини амалдаги қонунчилик ва жамият таъсис ҳужжатларида назарда тутилган тартибда мазкур жамиятнинг бир ёки бир нечта иштирокчисига сотиш ёки ўзга тарзда уларнинг фойдасига воз кечиш;

- жамият бошқа иштирокчиларнинг розигилидан қатъий назар амалдаги қонунчилик ва жамиятнинг таъсис ҳужжатларида белгиланган тартибда исталган вақтда жамиятдан чиқиш;

- жамият тугатилган тақдирда кредиторлар билан ҳисоб-китоб қилингандан кейин қолган мол-мулкнинг бир қисмини ёки унинг қийматини олиш;

- жами улушлари жамият устав фондиди камиди 10 % ташкил этадиган жамият, иштирокчилари ўз мажбуриятларини қўпол бузаётган ёхуд ўз ҳаракатлари билан жамиятнинг фаолият кўрсатишига имкон бермаётган ёки унинг жиддий тарзда қийинлаштираётган иштирокчини суд тартибда чиқарилишини талаб қилиш;

- жамият иштирокчилари амалдаги қонун ҳужжатларида ва жамиятнинг таъсис ҳужжатларида назарда тутилган бошқа ҳуқуқларга ҳам эга бўлишлари мумкин.

6.2. Жамият иштирокчилари куйидаги мажбуриятларни оладилар:

- жамият таъсис хужжатлари қондаларига риоя этиш;

- амалдаги қонунчиликка ва жамиятнинг таъсис хужжатларида назарда тутилган тартибда, миқдорда, усулларда ва муддатларда ҳисса қўшишлари;

- жамият фаолияти тўғрисидаги сир тутилган ахборотни ошкор қилмасликлари шарт. Ошкор этилмайдиган ахборотларнинг ҳажмига барча тижорат шартномалари техник ва бошқа жамият фаолияти тўғрисидаги ахборотлар киради. Жамиятнинг ҳар бир иштирокчиси ва ходими расмий равишда ва бехос олинган жамиятнинг фаолиятига тааллуқли ахборотларни конфиденциаллигини таъминлашга мажбур ва шу ахборотларни тарқатилишини олдини олувчи барча имкон бўлган чораларни кўриши лозим;

- Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатларида ва жамият таъсис хужжатларида кўзда тутилган бошқа мажбуриятларни бажариши шарт.

## VII-модда

### БОШКАРУВ ОРГАНЛАРИ.

7.1. Жамият иштирокчиларининг умумий йиғилиши жамият бошқарувининг олий органи ҳисобланади.

7.2. Иштирокчилари йиғилиши жамиятни бошқариш олий органидир. Овозлар иштирокчиларининг устав фондидаги улушларига мутонасиб равишда таксимланади.

Жамиятнинг ишлаб чиқариш - хужалик фаолиятини оператив бошқаруви унинг ижроя органи иштирокчилар йиғилиши сайланган директор бошчилигидаги дирекция тамонидан амалга оширилади.

7.3. Куйидагилар батамом жамият иштирокчилари йиғилиши ихтиёридадир:

- жамиятнинг фаолиятининг асосий йуналишларини белгилаш, унинг режаларини ва режаларининг бажарилиши ҳақидаги ҳисоботларни тасдиқлаш;

- жамиятнинг, шу жумладан филиаллари фаолиятининг йиллик натижалари шунингдек тафтиш комиссияси ҳисоботлари ва ҳулосаларини, даромадни (фойдани), дивидентни таксимлаш ҳамда зарарни қоплаш тартибини тасдиқлаш:

- филиаллар ва ваколатханаларни ташкил этиш ва қайта ташкил эти шва тугатиш, улар ҳақидаги низомларни тасдиқлаш;

- жамият ижрои органи мансабдор шахсларни мулкӣ жавобгарликка тортиш тўғрисидаги қарорлар қабул қилиш;

- жамиятнинг ички хужжатларини тасдиқлаш, жамиятнинг ташкилий тузилишини белгилаш;

- устав фонди миқдорини узгартириш;

- жамият ижрои органи, унинг филиаллари ҳамда ваколатхоналарининг мансабдор шахслари меҳнатига ҳақ тулаш шартларини белгилаш;

- жамият фаолиятини тугатиш ҳусусида қарор қабул қилиш, тугатиш комиссиясини тайинлаш, тугатиш балансини тасдиқлаш;

- иштирокчилар томонидан туланадиган қушимча баъдал миқдори, шакли ва тартибини белгилаш;

- жамият томонидан иштирокчи улушини сотиб олиш масаласини ҳал этиш;

- иштирокчиларни жамиятдан чиқариш.

7.4. Жамият фаолиятининг асосий йуналишларини; белгилаш унинг режа ва ҳисоботларини тасдиқлаш, жамият уставини узгартириш, устав сармоясини узгартириш масалаларига доир қарорлар жамият иштирокчиларининг туртдан уч қисмидан иборат қупчилик овози билан, бошқа масалаларга доир қарорлар эса оддий қупчилик овози билан қабул қилинади.

7.5. Иштирокчининг жамиятдан чиқариш масаласини қурилаётган мазкур иштирокчи ёки унинг вакили овоз беришда қатнашмайди.

7.6. Жамиятнинг ҳар қандай аъзоси таъсисчилар йиғилишида масалани муҳокама қилишни талаб қилишга ҳақлидир. Бунинг учун масала йиғилиш бошланишидан қаида йигирма беш қун олдин қуйилиши шарт.

7.7. Таъсисчилар йиғилиши йилига қаида икки марта қакирилади.

Жамиятнинг биргалиқда йигирма фоиздан қупрок овозга эга бўлган иштирокчилари навбатдан ташқари йиғилишни исталган вақтда ҳамда исталган масала буйича чиқаришни

талаб килишга ҳақлидир. Мободо жамият директори курсатилган талабни йигирма кун ичда бажармаёса, улар иштирокчилар йиғилишини узлари чиқаришга ҳақлидирлар.

Агар умумий йиғилишда, уставига мувофиқ камида олтинчи фоизга тенг овозга эга аъзолар катнашса у қонуний деб ҳисобланади.

#### VIII-модда

#### ДИРЕКТОРНИНГ ВАЗИФАЛАРИ.

8.1. Директор мазкур уставнинг 7.2. бандига мувофиқ тайинланади. Қуйидаги масалаларини ҳал этиш вазифалари жумласига киради:

- жамият ишларига оператив раҳбарлик қилиш;

- жамият уз зиммасига олган мажбуриятлар бажарилишини ташкил этиш, ишончномалар бериш, банкларда ҳисоб варақалари очиш, жамият номидан битимларни амалга ошириш;

- жамият ходимларини ишга олиш ва ишдан бушатиш.

8.2. Директор жамият иштирокчилари йиғилишига ҳисоб беради ва зиммасига юкланган топширик ва вазифалар бажарилиши учун улар олдида жавобгардир.

8.3. Директорни навбатдаги муддатга бир неча бор тайинлашга йул қуйилади.

#### IX-модда

#### ҲИСОБ ОЛИБ БОРИШ.

9.1. Жамият қонун ҳужжатларида белгилаб қуйилган тартибда бухгалтерик статистик ҳисоб ва ҳисобот олиб боради.

#### X-модда

#### МОЛИЯ ХУЖАЛИК ФАОЛИЯТИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ.

10.1. Жамиятнинг молия хужалик фаолиятини жамият иштирокчилари йиғилиш уз орасидан 3 кишидан иборат қилиб тузадиган тафтиш комиссияси амалга оширади. Жамият директори тафтиш комиссиясига аъзо бўлиши мумкин эмас.

10.2. Тафтиш комиссияси жамиятнинг мансабдор шахсларидан барча зарур материалларни, бухгалтерик ҳужжатлари ва бошқа ҳужжатлари ва шахсий тушинтиришномалар беришни талаб қилишга ҳақлидир.

10.3. Тафтиш комиссияси утказилган текширув натижаларини жамият иштирокчилари йиғилишига йуллайди. Йиллик ҳисоботлар яқунлари бўйича тафтиш комиссия хулоса тузади, бундай хулоса бўлмаса иштирокчилар йиғилиш жамиятнинг балансини тасдиқлайди.

10.4. Жамият манфаатларига ҳавф тугилганда ёки жамиятнинг мансабдор шахслари йул қуйган суистеъмол қилиш фактлари аниқланганида тафтиш комиссияси иштирокчиларининг навбатдан ташқари йиғилиши чақирилишини талаб қилишга мажбурдир.

#### XI-модда

#### ИШТИРОКЧИНИНГ ЖАМИЯТДАН ЧИКИШИ.

11.1. Жамият иштирокчиси жамият устав фондидаги улушини (улуши бир қисмининг) жамиятнинг бошқа иштирокчисига сотишга ёки ўзга тарзда улар фойдасига воз кечишга ҳақлидир. Бундай битимни тузиш учун жамиятнинг ёки жамият бошқа иштирокчиларининг розилиги талаб қилинмайди.

Жамият иштирокчиси ўз улушини (улушнинг бир қисмини) учинчи шахсларга сотиши ёки бошқача тарзда уларнинг фойдасига воз кечиши мумкин.

Жамият иштирокчисининг улуши тўлиқ тўланганга қадар бўлган даврда у фақат тўланган қисми бўйича бошқа шахсга ўтказилиши мумкин.

Жамият иштирокчилари жамият иштирокчисининг улушини учинчи шахсга тақлиф қилинадиган баҳо бўйича ўз улушлари миқдорларига мутаносиб равишда сотиб олишда имтиёзли ҳуқуқдан фойдаланадилар. Агар жамиятнинг бошқа иштирокчилари улушни (улушнинг бир қисмини) сотиб олишда ўзларининг имтиёзли ҳуқуқларидан фойдаланмаган бўлсалар, жамият ўзининг иштирокчиси томонидан сотилаётган улушни (улушнинг бир қисмини) сотиб олишда имтиёзли ҳуқуққа эга бўлади.

Ўз улушини (улушнинг бир қисмини) учинчи шахсга сотиш ниятида бўлган иштирокчи улуши сотиладиган баҳони ва бошқа шартларни кўрсатган ҳолда бу ҳақда



Жамиятнинг қолган иштирокчиларини ва жамиятнинг ўзини ёзма равишда хабардор қилиш шарт. Хабарнома жамият иштирокчилари ва ёки жамият сотиш учун таклиф қилинаётган бутун улушни (улушнинг бутун қисмини) сотиб олишда имтиёзли ҳуқуқдан, шундай хабар берилган кундан эътиборан бир ой ичида фойдаланмаган тақдирда, улуш (улушнинг бир қисми) жамиятга ва унинг иштирокчиларига хабар қилинган баҳоларда ва шартларда учинчи шахсга сотилиши мумкин.

11.2. Жамият иштирокчиси вафот этган тақдирда унинг улуши, амалдаги қонунларга мувофиқ жамиятнинг розилиги билан марҳумнинг меросхурларига ўтади.

11.3. Ҳуқуқий ворис (меросхур) жамиятга киришни рад этганида ёки жамият уни қабул қилишни рад этганида мерос берувчининг мулкдаги тегишли улуши (пул ёки натура шаклида) вафот этган кундан қиймат билан белгиланиб меросхурларга берилади.

Бу ҳолда устав фонди миқдорини камайтириш лозим бўлади.

## ХII-модда

### ЖАМИЯТНИ ТУГАТИШ ВА ҚАЙТА ТАШКИЛ ҚИЛИШ.

12.1. Жамият фаолияти қайта ташкил қилиш ва тугатиш шаклида тухтатилади. Жамият қайта ташкил этилганида унинг ҳуқуқ ва бурчлари ҳуқуқий ворисларига ўтади.

12.2. Жамиятнинг фаолиятининг тугатилиши амалдаги қонун ҳужжатларида қўзда тутилган ҳолларда, шунингдек иштирокчилари йиғилиши қарори билан ёки суд қарорларига асосан амалга оширилади.

12.3. Башарти қатнашчи бартараф этиб бўлмай куч уз зиммасига олаётганлиги ҳақида бошқа қатнашчини хабардор қилмаган бўлса, у ҳолда мазкур қатнашчига қўрган зарарни урнини қоплаб бориши шарт. Бартараф этиб бўлмас куч таъсири тухтаганини тугрисида умуман ёки вақтинча хабар бермаган тақдирда ҳам қатнашчи бошқалар билан тенг жавобгар бўлади.

12.4. Бартараф этиб бўлмас куч таъсиридаги ҳолат юзага келган тақдирда Ушбу шартномага қўра мажбуриятлар бажарилиши лозим бўлган муддат мазкур ҳолат амал қилиб қўрган вақтда тенг миқдорда кейинроққа сурилади.

12.5. Башарти бартараф этиб бўлмас куч таъсиридаги ҳолат б(олти) ойдан ортиқ амал қилса, ёки бундай ҳолат содир бўлганда бу ҳолатлар ва уларнинг оқибатлари анна шу муддатда ҳам қўпроққа қўзилиши лозим бўлса, қатнашчилар Ушбу шартномани бажариш ва тегишли келишувга эришишнинг муқобил усуллари топиш учун имкон борича қисқа муддат ичида музоқоралар юритиш мумкин.

12.6. Қатнашчилар ўртасида ушбу шартномадан келиб чиқадиган ёки у билан боғлиқ барча низов ва келишмовчиликларни тинч йули билан музоқарал йули билан ҳал этиш.

12.7. Низо ва келишмовчиликларни тинч йул билан ҳал этишни иложи бўлса, Ўзбекистон Республикаси амалдаги қонун ҳужжатларида қатий белгилаб қўйилган қонун ҳужжатларида қатий белгига қўйилган қондага биноан бу низо ва келишмовчиликлар Ўзбекистон Республикасининг судлов органларида ҳал этилади. Хужалик суди ва ёки бошқа суднинг ҳал қилув қарори узил қесил ва ҳар томон учун мажбурий ҳисобланади.

## ХIII-модда

### МАҲФИЙЛИК.

13.1. Жамият қатнашчилари Ушбу шартномага мувофиқ бошқа қатнашчилардан олган техниканинг, тижорат, молиявий ва бошқа хил ахборотларини қатий махфийлигини таъминлашлари ҳамда олинган ахборот ошқор бўлиб кетишини оқидини олиш юзасидан барча зарур чораларни қўришлари шарт.

13.2. Махфий ахборотларни учинчи шахсларга бериш, эълон қилиш ёки бошқа йўсинда имкор этишга бош директорини розилиги билан қўл қўйилади. Қатнашчилар учинчи шахсларга махфий ахборотларни улар (3 шахслар) бундай ахборотни билиш талаб этиладиган фаолиятга жалб қилинганидан ҳам жамият мақсад вазифаларини амалга ошириш учун керак бўладиган ҳажмдагина ошқор этишга ҳақлидир.

13.3. Ахборотларни ошқор этишни чеклаб қўчиликга маълум бўлган ахборотларга ёки қатнашчиларнинг айби билан эмас, балки бошқа қатнашчи уни олгунга қадар ёки уни улгандан сўнг узга манбалардан қатнашчига маълум бўлиб келган ахборотларга таълуқли



жамиятнинг қолган иштирокчиларини ва жамиятнинг ўзини ёзма равишда хабардор қилиш шарт. Хабарнома жамият иштирокчилари ва ёки жамият сотиш учун таклиф қилинаётган бутун улушни (улушнинг бутун қисмини) сотиб олишда имтиёзли ҳуқуқдан, шундай хабар берилган кундан эътиборан бир ой ичида фойдаланмаган тақдирда, улуш (улушнинг бир қисми) жамиятга ва унинг иштирокчиларига хабар қилинган баҳоларда ва шартларда учинчи шахсга сотилиши мумкин.

11.2. Жамият иштирокчиси вафот этган тақдирда унинг улуши, амалдаги қонунларга мувофиқ жамиятнинг розилиги билан марҳумнинг меросхурларига ўтади.

11.3. Ҳуқуқий ворис (меросхур) жамиятга киришни рад этганида ёки жамият уни қабул қилишни рад этганида мерос берувчининг мулкдаги тегишли улуши (пул ёки натура шаклида) вафот этган кундан қиймат билан белгиланиб меросхурларга берилади.

Бу ҳолда устав фонди миқдорини камайтириш лозим бўлади.

### **XII-модда** **ЖАМИЯТНИ ТУГАТИШ ВА ҚАЙТА ТАШКИЛ ҚИЛИШ.**

12.1. Жамият фаолияти қайта ташкил қилиш ва тугатиш шаклида тухтатилади. Жамият қайта ташкил этилганида унинг ҳуқуқ ва бурчлари ҳуқуқий ворисларига ўтади.

12.2. Жамиятнинг фаолиятининг тугатилиши амалдаги қонун ҳужжатларида қўзда тутилган ҳолларда, шунингдек иштирокчилари йиғилиши қарори билан ёки суд қарорларига асосан амалга оширилади.

12.3. Башарти қатнашчи бартараф этиб булмай куч уз зиммасига олаётганлиги ҳақида бошқа қатнашчини хабардор қилмаган бўлса, у ҳолда мазкур қатнашчига қўрган зарарни урнини қоплаб бориши шарт. Бартараф этиб булмас куч таъсири тухтаганини тугрисида умуман ёки вақтинча хабар бермаган тақдирда ҳам қатнашчи бошқалар билан тенг жавобгар бўлади.

12.4. Бартараф этиб булмас куч таъсиридаги ҳолат юзага келган тақдирда Ушбу шартномага қўра мажбурийлар бажарилиши лозим бўлган муддат мазкур ҳолат амал қилиб қўрган вақтда тенг миқдорда кейинроққа сурилади.

12.5. Башарти бартараф этиб булмас куч таъсиридаги ҳолат б(олти) ойдан ортиқ амал қилса, ёки бундай ҳолат содир бўлганда бу ҳолатлар ва уларнинг оқибатлари анна шу муддатда ҳам қўпроққа қўзилиши лозим бўлса, қатнашчилар Ушбу шартномани бажариш ва тегишли келишувга эришишнинг муқобил усуллари топиш учун имкон борича қисқа муддат ичида музоқоралар юритиш мумкин.

12.6. Қатнашчилар ўртасида ушбу шартномадан келиб чиқадиган ёки у билан боғлиқ барча низов ва келишмовчиликларни тинч йули билан музоқарал йули билан ҳал этиш.

12.7. Низо ва келишмовчиликларни тинч йул билан ҳал этишни иложи бўлса, Ўзбекистон Республикаси амалдаги қонун ҳужжатларида қатий белгилаб қўйилган қонун ҳужжатларида қатий белгига қўйилган қондага биноан бу низо ва келишмовчиликлар Ўзбекистон Республикасининг судлов органларида ҳал этилади. Хужалик суди ва ёки бошқа суднинг ҳал қилув қарори узил қесил ва ҳар томон учун мажбурий ҳисобланади.

### **XIII-модда** **МАҲФИЙЛИК.**

13.1. Жамият қатнашчилари Ушбу шартномага мувофиқ бошқа қатнашчилардан олган техниканинг, тижорат, молиявий ва бошқа хил ахборотларини қатий маҳфийлигини таъминлашлари ҳамда олинган ахборот ошқор бўлиб кетишини олидини олиш юзасидан барча зарур чораларни қўришлари шарт.

13.2. Маҳфий ахборотларни учинчи шахсларга бериш, эълон қилиш ёки бошқа йўсинда имкор этишга бош директорини розилиги билан қўл қўйилади. Қатнашчилар учинчи шахсларга маҳфий ахборотларни улар (3 шахслар) бундай ахборотни билиш талаб этиладиган фаолиятга жалб қилинганидан ҳам жамият мақсад вазифаларини амалга ошириш учун керак бўладиган ҳажмдагина ошқор этишга ҳақлидир.

13.3. Ахборотларни ошқор этишни чеклаб қўйишга маълум бўлган ахборотларга ёки қатнашчиларнинг айби билан эмас, балки бошқа қатнашчи уни олгунга қадар ёки уни улгандан сунг узга манбалардан қатнашчига маълум бўлиб келган ахборотларга таълуқли

эмас. Махфийлик тугрисидаги коида бузилганлигини ошкор этиш мажбурияти, шундан сунг коида бузарлик содир этилганлигини арз килган катнашчи зиммасига юкланади.

#### XIV. модда

### КАТНАШЧИЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ.

14.1 Жамият уз катнашчиларнинг мажбуриятлари юзасидан жавоб бермайди. Жамият катнашчилари, жамият мажбуриятлари юзасидан устав жамгармасидаги уз улушлари куйган маблаглари дорасида жавобгар буладилар, уз улишларини тулаш муддатини утказиб юборган катнашчилар эса улиш туланмаган н кисми киймати доирасида хам жавобгар буладилар.

14.2 Ушбу шартнома шартларини умуман ёки лозим даражада бажаришган катнашчилардан бири бошка катнашчига ана шу умуман ёки лозим даражада бажарганлик окибатида етказилган зарарнинг урнини коплаб бериши шарт.

#### XV. модда

15.1 Ушбу шартномага киритиладиган хар кандай узгартириш ва кушимчалар башорти улар ёзма тарзда лозим булган даражада ифодаланган хамда катнашчилар томонидан имзоланган, Ўзбекистон Республикасининг амалдаги конун хужжатларига мувофик руйхатдан утсагина хакикий хисобланади.

15.2 Башорати Ушбу шартноманинг коидаларидан биронтаси хакикий буймай қолса, бу бошка коидаларнинг амал килиши дахл етмайди. Бундай вақтда катнашчилар гап матни хукукий муносабатлар хусусида буйгани учун хам, хаки кий буймай колган коидани ухшаш иктисодий нагжа олиш имконини берадиган коида билан алмаштириш тугрисида узаро келишиб куйа қоладилар.

#### XVI. модда

### ЖАМИЯТ ФАОЛИЯТИНИ ТУГАТИШ.

16.1 Жамият фаолиятини тугатиш катнашчилари умумий йиғилишнинг карорига куйра уни қайта ташкил этиш ёки тугатиш йули билан ёки Ўзбекистон Республикасининг амалдаги конун хужжатларида назарда тутилган холларда ва шартларда қайта ташкил этилади ёки тугатилади.

#### XVII. модда

### ШАРТНОМАНИНГ КУЧГА КИРИШИ.

17.1 Ушбу шартнома катнашчиларнинг барчаси имзоланган кундан этиборан кучга киради ва илгари имзо куйган хужжатларни ёки катнашчилар уртасида оғзаки келишувларни бекор қилади.

#### ТАЪСИСЧИЛАР:

Йулдошев Тулкин Парфиёвич







## XALQ DEPUTATLARI BOYOVUT TUMANI KENGASHI QARORI

2022 - yil 6 - iyun

VI-37-72-9-123-K/22

Boyovut tumani hokimligi

### Boyovut tumani "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'lari hisobidan "Ochiq budget" axborot portali orqali "Mening yo'lim" loyihasida eng ko'p ovoz to'plagan takliflar uchun mablag'lar ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi budget kodeksining 126-moddasiga, "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'lari hisobidan "Ochiq budget" axborot portali orqali "Mening yo'lim" loyihasi uchun eng ko'p ovoz to'plagan takliflarni ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 6, 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

### QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Avtomobil yo'llari sohasida ochiqlik ochiqlik standartlarini joriy etish va sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 2-fevraldagi 49-sonli qaroriga asosan tuman (shahar) mahalliy budjeti parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'lari hisobidan, joriy yil 4-apreldan 29-aprelgacha bo'lgan muddat davomida "Ochiq budget" axborot portali orqali "Mening yo'lim" loyihasida eng ko'p ovoz to'plagan takliflar;

1-o'rinni olgan Boyovut tumani Qarapchi mahallasi Maroqand ko'chasi 5.500 metrini ta'mirlash taklifi (**taklif ID raqami 1280500019**) xarajatlari uchun 922.9 ming (*To'qqiz yuz yigirma ikki million to'qqiz yuz ming*) so'm;

2-o'rinni olgan Boyovut tumani Yangi avlod mahallasi Hur o'lka ko'chasi 1.400 metrini ta'mirlash bo'yicha kiritilgan taklifni to'liq moliyalashtirish uchun jamg'armada qoldiq yetmaganligi hamda Xalq deputatlari Boyovut tuman Kengashining 2022-yil 21-maydagi "Boyovut tumanida 2022-yilda sement-beton qoplamali ichki yo'llarni qurish parametrlarini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-37-65-9-123-K/22-sonli qaroriga asosan ushbu ko'cha 2022-yilda sement-beton qoplamali ichki yo'llarni qurish manzilli ro'yhatiga kiritilganligi sababli (**taklif ID raqami 1280500027**) taklifi rad etilsin;

3-o'rinni Boyovut tumani Navro'z mahallasi To'maris ko'chasini 1.715 metrini ta'mirlash taklifi; (**taklif ID raqami 1280500005**) xarajatlari uchun 287.8 ming (*Ikki yuz sakson yetti million sakkiz yuz ming*) so'm;

4-o'rinni olgan Boyovut tumani Ma'naviyat mahallasi Nayman ko'chasini 3.100 metrini ta'mirlash (**taklif ID raqami 1280500013**) ushbu taklif, 2022-yil tashabbusli budget jarayonida qatnashib g'olib bo'lganligi hamda kiritgan taklifni to'liq moliyalashtirish uchun jamg'armadagi mablag' yetarli bo'lmaganli sababli rad etilsin. Shuningdek, ushbu taklif rad etilganligini inobatga olib, jamg'armadagi qoldig' mablag'lar keyingi o'rini egallagan takliflarga loyiha

smetasiga asosan taqsimlansin.

2. Boyovut tumani Ma'naviyat mahallasi Nayman ko'chasini ta'mirlash (**taklif ID raqami 1280500013**) taklifi rad etilganligini inobatga olib, quyidagi takliflarga:

5-o'rinni Boyovut tumani Gulbog' mahallasi Nodirabegim ko'chasini 650.0 metrini ta'mirlash taklifi; (**taklif ID raqami 1280500026**) xarajatlari uchun 109.1 ming (Bir yuz to'qqiz million yuz ming) so'm;

6-o'rinni Boyovut tumani Markaz mahallasi Sheroz ko'chasini 400.0 metrini ta'mirlash taklifi; (**taklif ID raqami 1280500025**) xarajatlari uchun 67.1 ming (Oltmish yetti million yuz ming) so'm;

7-8-o'rinni olgan takliflarni moliyalashtirish uchun kiritgan mablag'lariga jamg'armada qolgan qoldiq yetmaganligi sababli rad etilsin;

9-o'rinni Boyovut tumani Markaz mahallasi Bahoriston ko'chasini 500.0 metrini ta'mirlash taklifi; (**taklif ID raqami 1280500034**) xarajatlari uchun 83.9 ming (Sakson uch million to'qqiz yuz ming) so'm;

10-o'rinni Boyovut tumani Sarmich mahallasi Yuqori Sarmich ko'chasini 1.000 metrini ta'mirlash taklifi; (**taklif ID raqami 1280500018**) xarajatlari uchun 167.8 ming (Bir yuz oltmish yetti million sakkiz yuz ming) so'm mablag'lar ajratilsin.

3. Xarajatlarni amalga oshirishga mas'ul tashkilotlar rahbarlariga:

- ajratilgan mablag'lar doirasida belgilangan tartibda to'lovlarni amalga oshirish;
- moliyalashtirish manbasini ochish uchun o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan xujjatlarni tuman moliya bo'limi va tuman G'aznachilik bo'linmasiga taqdim etish;
- ajratilgan mablag'lardan to'g'ri, maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlash;
- ajratilgan maqsadli mablag'larni o'z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o'rganish hamda o'rganish natijalariga ko'ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag'larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko'rsinlar.

4. Tuman hokimligining moliya bo'limi mudiri v.v.b (B.Ahmadov)ga budjet xarajatlar rejasiga belgilangan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritish, tuman G'aznachilik bo'linmasi boshlig'i (F.Kuldashev)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish hamda ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi A.Amanlikov hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari F.Kushakov zimmlariga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Kengash raisi**

**D.Uralova**